



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 57 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI	41
Azimov.J.S., Melibayeva R.N.	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	47
Kurbonov Munis Umirbekovich	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi	

BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI

Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi

Ilmiy tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada turli muassasalarda maktabgacha yoshda deprivatsiya sharoitida tarbiyalanayotgan bolalarning bilish jarayonlari, xususan xotira va diqqat rivojlanishiga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari bolaning ehtiyojlari, muloqoti va emotsional aloqasining yetarli emasligi kognitiv rivojlanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shuningdek, deprivatsiyaning emotsional, kognitiv, sensor, ijtimoiy va yashirin turlari o'rganilib, psixologik profilaktika hamda psixokorreksiya choralarining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: ehtiyoj, muloqot, emotsional aloqa, deprivatsiya, bilish jarayonlari, xotira, diqqat, emotsional deprivatsiya, kognitiv deprivatsiya, sensor deprivatsiya, ijtimoiy deprivatsiya, yashirin deprivatsiya, psixologik profilaktika, psixokorreksiya.

Abstract: The article analyzes the peculiarities of cognitive development in preschool children raised in conditions of deprivation in various institutions. The research demonstrates that a lack of emotional contact, communication, and fulfillment of basic needs negatively affects the development of memory, attention, and other cognitive processes. The study examines different types of deprivation — emotional, cognitive, sensory, social, and hidden — and emphasizes the significance of psychological prevention and psychocorrection in overcoming these challenges.

Key words: need, communication, emotional contact, deprivation, cognitive processes, memory, attention, emotional deprivation, cognitive deprivation, sensory deprivation, social deprivation, hidden deprivation, psychological prevention, psychocorrection.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности когнитивного развития детей дошкольного возраста, воспитывающихся в условиях депривации в различных учреждениях. Подчеркивается, что недостаток эмоционального контакта, общения и удовлетворения базовых потребностей отрицательно влияет на формирование памяти, внимания и других познавательных процессов. В исследовании анализируются виды депривации — эмоциональная, когнитивная, сенсорная, социальная и скрытая, а также раскрывается значение психологической профилактики и психокоррекции.

Ключевые слова: потребность, общение, эмоциональная связь, депривация, когнитивные процессы, память, внимание, эмоциональная депривация, когнитивная депривация, сенсорная депривация, социальная депривация, скрытая депривация, психологическая профилактика, психокоррекция.

KIRISH

Har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyalanadigan muassasalarga birinchi prezidentimiz I. A. Karimov davrida ham katta e'tibor qaratilgan. "Bolalar bog'chasi, maktab bilan bir qatorda bolalar poliklinikalarini, cho'milish havzasi bo'lgan sport maydonchalari, bolalar bilan maktabdan tashqari ish olib boruvchi muassasalarni o'z ichiga oladigan bolalar muassasalari territorial komplekslarini barpo etish xususida chuqur o'ylab, bu ishni boshlab yuborish o'rinni bo'lur edi" [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixik deprivatsiya tushunchasi hanuzgacha yakunlanmagan va turg'un bo'lmaganligi tufayli, ko'proq mazkur tushunchani ifodalashi kerak bo'lgan hamda to'g'ridan-to'g'ri muallifning asosiy nazariy nuqtai nafari haqida dalolat beradigan atamalar xilma-xilligiga ko'ra namoyon bo'ladi. Adabiyotlarda tez-tez "deprivatsiya" (deprivation yoki muvofiq privation) nomi ishlatiladi, u nimaningdir yo'qotilganligi, qandaydir muhim ehtiyojning yetarli darajada qondirilmaganligi tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlarni bildiradi.



Aksariyat hollarda insonlarning birgalikdagi munosabatlari tizimida psixik deprivatsiyaning quyidagi to'rt shakli ajratiladi:

Emotsional munosabatlardagi deprivatsiya — qandaydir shaxsga nisbatan shaxsiy emotsional munosabatni o'rganishi uchun yetarli bo'lmagan imkoniyat yoki agar shunday yaratilgan bo'lsa, o'xshash emotsional aloqaning uzilishi.

Kognitiv deprivatsiya — tashqarida sodir bo'ladigan hodisani tushunish, hayron bo'lish va boshqarish imkonini bermaydigan, aniq tartibsiz va ma'nosiz tashqi dunyoning o'ta o'zgaruvchan xotik tuzilmasi.

Rag'batlantiruvchi deprivatsiya — sensor rag'batlantirishlarning kamaygan miqdori yoki ularning cheklangan o'zgaruvchanligi va modalligi (etarli stimullar miqdorini olmaydi — ko'rish, eshitish, ushlab ko'rish va b.).

O'xshashlik deprivatsiyasi — avtonom ijtimoiy rolni o'zlashtirish uchun cheklangan imkoniyat [2].

Mazkur deprivatsiya shakllari o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, ularning yuzaga kelish mexanizmlari shaxsning ob'ektiv olam bilan bo'ladigan hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Bu esa psixik deprivatsiyaning insonlar hayoti va turmush tarziga ta'sirini olimlarning izlanishlari asosida tahlil qilishga imkon beradi.

Psixik deprivatsiya masalasining boshlang'ich nazariy jihatida asosiy rivojlanishi psixologik tahlil asosida amalga oshirildi. Biroq keyinchalik yo'nalishlardagi tadqiqotlarda to'xtalishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Unga ko'ra psixik deprivatsiya muammosini nazariy o'rganishning zamonaviy holati psixologik nazariyaga umuman mos kelmasligi va yakunlanmaganligida namoyon bo'ladi.

Xotira maktabgacha yoshda beixtiyoriy xususiyatga ega. Bola o'zi uchun katta qiziqish uyg'otgan, eng yaxshi taassurot qoldiradigan narsalarni yaxshiroq eslab qoladi. Qayd qilinadigan material hajmi ko'p hollarda mazkur narsa yoki hodisaga nisbatan emotsional munosabat bilan belgilanadi. Kichik va o'rta bog'cha yoshiga nisbatan olti–yetti yoshdagi bolalarda beixtiyoriy eslab qolishning nisbiy ahamiyati pasaya boradi, biroq eslab qolish mustahkamligi ortadi. Katta bog'cha yoshidagi bola olingan taassurotlarni yetarli uzoq muddatdan keyin ham qayta tiklashga qodir bo'ladi. Katta yoshdagi bog'cha bolasining asosiy yutuqlaridan biri ixtiyoriy eslab qolish rivojlanishidir. Bu eslab qolishning ayrim shakllarini to'rt–besh yoshli bolalarda kuzatish mumkin, biroq to'liq rivojlanishga olti–yetti yoshda erishiladi.

Ko'p hollarda bunga o'yin faoliyati yordam beradi, unda kerakli ma'lumotlarni eslab qolish va o'z vaqtida qayta tiklash qobiliyati yutuqqa erishish shartlaridan biri hisoblanadi. Bu yoshning muhim xususiyati shundan iboratki, muayyan materialni eslab qolishga qaratilgan maqsadni olti–yetti yoshli bola oldiga qo'yish mumkin bo'ladi. Bunday imkoniyatning mavjudligi shu bilan bog'liqlik, bola eslab qolish samaradorligini oshirish uchun maxsus mo'ljallangan turli xil usullardan foydalanishni boshlaydi: takrorlash, materialni ma'noli va tasavvurli bog'lash.

Shunday qilib, olti–yetti yoshga kelib xotira tuzilmasi eslab qolish va eslatib qo'yishning ixtiyoriy shakllari sezilarli rivojlanish bilan bog'liq katta o'zgarishlarga duch keladi. Bajarilayotgan faoliyatga nisbatan faol munosabat bilan bog'liq bo'lmagan beixtiyoriy xotira umuman hukmron bo'lsa-da, yetarli darajada mahsuldor bo'lmaydi [3]. Ixtiyoriy va beixtiyoriy xotira shakllarining o'xshash mutanosibligi tasavvur kabi ruhiy vazifaga nisbatan belgilanadi. Uning rivojlanishidagi katta siljishni o'yin ta'minlaydi, uning zaruriy sharti esa o'yinni bosuvchi faoliyat va o'rinbosar narsalarning mavjudligidir. Maktabgacha katta yoshda o'rinbosar sof ramziy bo'lib qoladi va asta-sekin tasavvur qilinayotgan narsalar bilan harakatlarga o'tish boshlanadi. Tasavvurni shakllantirish bola nutqi rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Tasavvur qilish bu yoshda bolaning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir imkoniyatlarini kengaytiradi, uning o'zlashtirilishiga yordam beradi, fikrlash bilan birga borliqni idrok etish vositasi sifatida xizmat qiladi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ko'zda tutilgan maqsad — maktabgacha yoshdagi bolalarning turli muassasalarda, ya'ni MTM, Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchalaridagi (SOS) deprivatsiya sharoitida tarbiyalanuvchilarda bilish jarayonlarining rivojlanishiga salbiy ta'sirini o'rganish. Maqola Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining Yo-1-14 raqamli yosh olimlar loyihasi "Maktabgacha yoshdagi bolalarda deprivatsiyaning psixologik xususiyatlari" mavzusi asosida tayyorlandi.

Tadqiqot №24 Mehribonlik uyining maktabgacha yoshdagi ota-ona qaramog'isiz qolgan tarbiyalanuvchilari, SOS (Bolalar shaharchasi) hamda №112 MTM tarbiyalanuvchilarida olib borildi. Eksperimentda 152 nafar 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar ishtirok etdilar. Muallif muassasa rahbari va xodimlariga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bilish jarayonlarining muhim xususiyatlaridan biri — xotiraning rivojlanishida maktabgacha yoshdagi bolalarda deprivatsiya ta'sirini o'rganish uchun biz "10 ta predmetlar" metodikasini qo'lladik. Bolaga taqdim

etilgan metodikada bir-biridan ma'lum masofada joylashgan, yirik qilib chizilgan 10 ta turli predmet tasvirlangan bo'lib, bolaga 1–2 daqiqa davomida ko'rsatiladi. Shundan so'ng boladan 15–20 daqiqadan keyin kartochkada qanday rasmlar tasvirlanganini aytib berish so'raladi. Bolada xotiraning rivojlanganligini aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

Turli ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarida xotiraning rivojlanganligi

Sinaluvchilar	N	x	Σ	m	t
Maktabgacha ta'lim muassasasi	76	4,5	1,33	0,21	10,06*** 3,75**
Mehribonlik uyi	38	1,97	1,1	0,15	
Bolalar shaharchasi(SOS)	38	2,81	0,83	0,13	

Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarida xotira rivojlanganligi o'rtacha arifmetik qiymati 4,50 ga, o'rta kvadrat tarqoqlik 1,33 ga, o'rtacha xato esa 0,21 ga teng ekanligi ko'rinadi. Bu natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiya oluvchi bolalarning xotirasi yaxshi rivojlanganini bilish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiyachilari 6–7 yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ularga berilayotgan materiallarni yaxshi eslab qolishlari uchun bor imkoniyatlarni ishga soladilar va bolalar bilan individual yondashishga harakat qiladilar. Bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ota-onalari tomonidan yuqori baholanishi hamda ularning kichik yutuqlarini ham rag'batlantirishlari bolalarning xotira rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rish mumkin.

Xuddi shu holat bo'yicha Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi bolalarda xotira rivojlanganligi o'rtacha arifmetik qiymati 1,97 ga, o'rta kvadrat tarqoqlik 1,0 ga, o'rtacha xato esa 0,13 ga teng ekanligi kuzatiladi. Demak, Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarning bilish jarayonlaridan biri bo'lgan xotira, maktabgacha ta'lim muassasasidagi bolalar xotirasiga nisbatan past darajada. Ushbu muassasa tarbiyalanuvchilari xotirasi orasidagi farq muqarrarlik mezonini $t=10,06$ ($r<0,001$) bilan tasdiqlandi. Mehribonlik uyidagi tarbiyalanuvchilarda sensor yetishmaslik ularning bilish jarayonlari rivojlanishiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, ular o'sayotgan muhit ham bola psixik rivojlanishidagi barcha sohalarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Emotsional munosabatning yetishmasligi bolaning to'laqonli rivojlanishiga, ayniqsa bilish jarayonlariga to'sqinlik qiladi. Buni olingan natijalardan ham anglash mumkin. Ona va bolaning erta emotsional aloqalari ahamiyati uning butun kelgusi rivojlanishida — muhabbat, qo'rquv va bilish faolligining o'zaro mutanosibligi misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Go'dak hayotida yuzaga keladigan birinchi hissiyot — onaga bo'lgan muhabbatdir, u keyinchalik yuzaga keladigan qo'rquv va agressiyani to'xtatadi. Natijada shunga o'xshash hissiyotlar bola tomonidan faqatgina haqiqiy xavf-xatar vaziyatlarida (lekin qandaydir yangi qo'zg'atuvchiga ta'sir sifatida emas) namoyon bo'ladi. Bu esa bilish jarayonlarining rivojlanishida ham ko'zga tashlanadi [95].

Bolalar shaharchasida (SOS) xotira bo'yicha olingan natijalar o'rtacha arifmetik qiymati 2,81 ga, o'rta kvadrat tarqoqlik 0,83 ga, o'rtacha xato esa 0,13 ga teng. Bu ko'rsatkichlar maktabgacha ta'lim muassasasidagi bolalarnikidan sezilarli darajada past, lekin Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarnikidan yuqoriroqdir: $t=3,75$ ($r<0,01$). Bu farqlardan anglashiladiki, Bolalar shaharchasidagi muhit bolalarga nisbatan bir muncha ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni, biriktirilgan ona o'zining mehri bilan bolalarning qiziqishlariga e'tibor bilan qarab, ular bilan individual yondashishga intilgan. Bolalar shaharchasida, Mehribonlik uyidan farqli o'laroq, ishonch deprivatsiyasi kuzatiladi. Ishonch deprivatsiyasi bolalarning o'ziga va kattalarga ishonmasligi tufayli yuzaga keladi. Shu bilan birga, shaharchadagi bolalarga ko'rsatilayotgan emotsional yaqinlik ularning rivojlanishiga muayyan ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.


Yuqorida keltirilgan natijalar tahlili diagramma yordamida ham aks ettirildi. Diagramma orqali holat yanada aniqroq tasavvur qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi turli muassasalarda tarbiyalanuvchi bolalardagi bilish jarayonlarini o'rganishda shunday xulosaga kelish mumkinki, bolaning psixik rivojlanishida va uning bilish jarayonlari rivojlanishida ota-ona hamda atrof-muhitning o'rni katta. Biz olib borgan tadqiqot natijalari tahlilidan shuni aytilish mumkinki, bolada bilish jarayonlarining rivojlanishiga oilaviy sharoit, atrof-muhit va ota-ona mehrining yo'qligi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bola o'zi yashayotgan muhitda o'zini qanchalik qulay his qilsa, kattalar tomonidan o'z vaqtida rag'batlantirilib tursa va uning barcha ehtiyojlari o'z vaqtida qondirilsa, undagi barcha psixik xususiyatlar hamda psixik holatlar o'z vaqtida rivojlanadi.



Mehribonlik uylarida olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni anglatadiki, u yerda tarbiyalanayotgan bolalarga ota-ona mehrining etishmasligi, yaqin emotsional muloqotning yo'qligi, tarbiyachi xodimlar tomonidan qo'yilgan tartib-intizom, bolaning talablari bilan qiziqmaslik va har bir bola bilan individual yondashuvning tanqisligi uning psixik rivojlanishi, shuningdek, bilish jarayonlaridan xotiraning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.




Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining aksariyati to'liq oila farzandlari bo'lganliklari uchun ular bilan ham tarbiyachilar, ham ota-onalar bolalarning ehtiyojlari va xohish-istaklarini o'z vaqtida qondirib, ularga kerakli mehrga ega bo'lganliklari bois, bu bolalarda bilish jarayonlari va psixik rivojlanish Mehribonlik uylaridagi bolalarnikidan ancha yuqorida. Ya'ni, ular har tomonlama yaxshi rivojlangan.

Bolalar shaharchasi (SOS) tarbiyalanuvchilarining bilish jarayonlari esa Mehribonlik uyida yashovchi bolalarnikiga nisbatan bir muncha yuqori. Bunga sabab — Bolalar shaharchasida yashovchi bolalarning yashash sharoitlari Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalarnikidan farq qiladi. Ular qulay oilaviy sharoitga yaqin muhitda tarbiyalanadilar. Ularning onalari, opa-singillari va aka-ukalari mavjud. Ulardagi sharoitda bolalar o'zlarini oilasi bor deb his qiladilar va siblinglararo munosabatda ham mehr-muhabbatga erishadilar. Ularning onalari o'sib borayotgan bola bilan yaqin emotsional munosabatda bo'lishga harakat qiladi. Bular o'z-o'zidan bolaning psixik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. — T.: O'zbekiston, NMIU, 2011. — B. 206–207.
2. Yozef Langeymer, Zdenek Mateycek. Avitsenum. — Praga, 1984. — 17 b.
3. Выготский Л. С. Развитие высших психологических функций. — Москва: АПН РСФСР, 1960.
4. Рогов Е. И. Настольная книга практического психолога: Учебное пособие: в 2 кн. — М.: Изд-во ВЛАДОС-ПРЕСС, 2005. — Кн. 1.



13.00.00	Pedagogika fanlari
13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03	Maxsus pedagogika
13.00.04	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06	Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07	Ta'limda menejment
13.00.08	Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09	Ijtimoiy pedagogika
07.00.00	Tarix fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari
01.00.00	Fizika-matematika fanlari
02.00.00	Kimyo fanlari
03.00.00	Biologiya fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
11.00.00	Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.